

**O‘ZBEK MILLIY RAQS SAN’ATI QIZLARXONIM
DO‘STMUHAMMEDOVA TIMSOLIDA**

Atkiyoyeva Ruxshona

*Farg‘ona Davlat unibersiteti San ‘atshunoslik fakulteti “Musika ta’limi” yo ‘nalishi
1-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada raqqosa, O‘zbekiston xalq artisti, “Go‘zal” raqs ansamblining yetakchi va tashkilotchilaridan biri bo‘lgan Qizlarxonim Do‘stmammedovaning samarali ijod yo‘li, qolaversa, o‘zbek milliy raqs san‘atini yanada keng targ‘ib qilish yo‘lida qo‘shgan hissasi haqida fikr mulohazalar keltiriladi. Shuningdek, bugungi kunda ushbu profesional raqqosaning nomini bardavom qilish maqsadida qilinayotgan sa‘yi harakatlar atroflicha ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *raqs, ritmika, milliy xoreografiya, “Tanovor”|, “Munojot”, “Mo‘g‘ulchai Segoh”, “Shashmaqom”*

Bugungi kunda nafaqat musiqa va teatr yo‘nalishiga, balki, xoreografiya janriga ham alohida e‘tibor qaratilmoqda. O‘zbek milliy xoreografiya - raqs san‘ati boshqa millat va davlat raqs san‘atiga qaraganda chuqur ma‘no va mazmunga egaligida, ritm va texnik harakat tomonlama murakkabligi hamda ijrochi tomonidan nafasat va ehtiyotkorlikni talab qilishi bilan farqlanadi. Qolaversa, o‘zbek raqsLARining yuqori koeffitsiyenti raqsning kuchli tarbiyaviy ahamiyatga egaligini isbotlaydi.

O‘zbek milliy raqs san‘atini nafaqat O‘zbekiston bo‘ylab, balki, chet elda ham rivojlanib keng ildiz otishi uchun o‘z hissasini qo‘shgan fidokor va o‘z ishiga chin ko‘ngildan yondashib xizmat qilgan xoreograf (raqqosa)lar hurmat va e‘tiborga loyiqdir. Bunga misol tariqasida O‘zbekiston xalq artisti, turli laureatlar sohibasi, professional xoreograf (raqqosa) Qizlarxonim Do‘stmammedovadir.

Qizlarxonim Do‘stmammedova 1946-yil 25-noyabrda Toshkentda tavallud topadi. Musiqaga bo‘lgan qiziqish unda erta bolalik davridan boshlangan. Dastlab 1965-yilda Toshkent davlat universitetini keyinchalik, 1977-yilda Toshkent teatr va rassomchilik san‘ati instituti (hozirgi san‘at va madaniyat instituti)ni tamomlagan.



Mehnat faoliyatini 1965-yilda Munavvar Qori Yoqubov nomidagi O‘zbek davlat filarmoniyasi balet solisti sifatida boshlagan va 1986- yilga qadar faoliyat olib borgan. Keyinroq “O‘zbekiston” teatr-studiyasi solisti (1989-1991), Toshkent davlat madaniyat instituti Xalq musiqasi kafedrasida o‘qituvchisi (1991-1995), Xalqaro “Oltin me‘ros” xayriya jamg‘armasi qoshidagi milliy mumtoz raqs dastasining bosh badiiy rahbari (1999-2005) faoliyatini yuritgan.

Qizlarxon Do‘stmuhammedova lirik raqqosa, raqslari nafis va jozibali harakatlarga boyligi bilan ajralib turadi. “Go‘zal”, “Tong malikasi”, “Go‘zal tong”, “Intizor”, “Buxoro yulduzi”, “Sevgi taronasi”, “Nozli” kabi zamonaviy, shuningdek “Munojot”, “Tanovor”, “Mo‘g‘ulchai Segoh”, “Qora ko‘zim”, “Guluzorim”, “Savti Miskin” kabi mumtoz raqslari xalq ichida ma‘lum va mashhurdir.¹

Bundan tashqari professional raqqosa “Shoshmaqom” telefilmida qatnashgan (1972), “Tanovor” raqs ansambli (Sietl, AQSH)da o‘zbek raqslarini sahnalashtirgan. AQSH, Liviya, Fransiya, Tunis kabi mamlakatlarida gastrol safarlarida bo‘lgan va ularda faol ishtirok etgan.

AQSHga ilk bor 1979-yilda Toshkent va Sietl shaharlari o‘rtasidagi birodarlashuv munosabatlarining bir yilligini nishonlash tantalarida ishtirok etish uchun kelgandim uchun kelgandim, - deydi u. O‘shanda “Munojot” raqsiga oshufta

¹ E.Saitova, N.Abraykulova. “Xoreografiya va raqs san‘ati asoslari kitobi”.

bo‘lib, uni o‘rganishni boshlagan amerikalik xoreograf Laurel Grey bilan tanishib qoladi va u bilan master klasslar almashadi. Amerikadagi ushbu gastrol chog‘ida konsert dasturi tashkillanadi va bunda Qizlarxonim Do‘stmuhammedova o‘z chiqishini namoyish etadi. Ijro repertuarida u “Tanovor”² o‘zbek milliy raqsini intro etadi va ushbu raqs tadbir kulminatsiyasiga aylanadi.

Do‘stmuhammedova ijodiga bag‘ishlab “Nafosat guldastasi” nomli film ishlangan (1985-yil). 1984-yilda “O‘zbekiston xalq artisti” mukofoti berilgan, “El-yurt hurmati ordeni” bilan 2000-yilda mukofotlangan.³

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, nafosat kuychisining ijod yo‘li samarali va sermazmun o‘tgan. Qizlarxonim Do‘stmuhammedova 2023-yil 25-mayda 77 yoshida vafot etdi. Uning shu kungacha qilgan mehnat-u , mashaqqatlari davlat tomonidan be‘etibor qoldirilmadi. Vafot etganiga oz muddat bo‘lgan bo‘lsada u yashagan xonadon “uy muzeyi” sifatida o‘z faoliyatini boshladi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad ijodkorning nomini bardavom etish va yoshlarga ibrat sifatida o‘rnak qilishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. N.Yuldasheva, N.Rahmatova. O‘zbek musiqa adabiyoti. Toshkent. 2016-y.
2. E.Saitova, N.Abraykulova Xoreografiya va raqs san’ati asoslari. Toshkent. 2015-y.
3. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-jild.
4. Achildiyeva, M. (2023). PATNISAKI ASHULANING IJTIMOYIY JARAYONDA FALSAFIY TARAQQIYOTI XUSUSIDA. *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan*, 1(2), 254-266.
5. Achildiyeva, M. (2023). QADIMGI DAVR CHOLG ‘U SOZLARI VA ULARNING KELIB CHIQISHI. *DENMARK" THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF SCIENTIFIC PROGRESS IN MODERN SOCIETY"*, 14(1).
6. Achildiyeva, M., & Mohinur, M. (2023). O ‘ZBEK SAN’ATINING ZABARDAST HOFIZI JO ‘RAXON SULTONOV. *DENMARK" THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF SCIENTIFIC PROGRESS IN MODERN SOCIETY"*, 14(1).
7. Achildiyeva, M., & Sabina, B. (2023). ALISHER NAVOIY ASARLARIDA MUSIQIY ATAMALAR. *Gospodarka i Innowacje.*, 34, 494-498.

² “Tanovor” - olisdan yetib kelgam betakror raqs bo‘lib, ayollarning farg‘onacha quvnoq va g‘amgin, jo‘shqin va ohista, sho‘x va muloyim yig‘ma ashularidan yaratilgan. Ularni o‘zaro uyg‘unlashtirib turadigan yagona jihat- xushohanglik, ritmika, chuqur mazmun mohiyatdir.

³ N.Yuldasheva, N.Rahmatova. O‘zbek musiqa adabiyoti. Darslik uchun qo‘llanma.

8. Achildiyeva, M., & Atkiyoyeva, R. (2023). O 'ZBEK MILLIY BALETLARINING PSIXO-ESTETIK AHAMIYATI. *Gospodarka i Innowacje.*, 34, 485-489.
9. Ikromova, F. Y. Q., & Achildiyeva, M. (2023). XOR SAN'ATINING KELIB CHIQISH TARIXI, UNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O 'RNI VA AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(5), 320-325.
10. Achildieva, M., & Ikromova, F. (2022). THE USE OF MAQOM METHODS IN THE OPERA " LEYLI AND MAJNUN" BY REINGOLD GLIER AND TOLIBJON SODIKOV. *Science and Innovation*, 1(4), 23-28.
11. Xojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). PROBLEMS OF PERFORMING MUSICAL STAGE WORKS (ON THE EXAMPLE OF THE OEUVRE OF UZBEK COMPOSERS). *Science and Innovation*, 1(4), 29-33.
12. Khojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). Look at the Polyphony and Theoretical Heritage of SI Taneev. *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences*, 8, 87-89.
13. Hojimatov, A. (2022). CHANG CHOLG 'USI TARIXIGA BIR NAZAR VA UNING ORNAMENTAL BEZAKLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 265-275.
14. Xojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). МУСИҚИЙ САҲНАВИЙ АСАРЛАРНИНГ ИЖРОЧИЛИК МУАММОЛАРИ (ЎЗБЕКИСТОН КОМПОЗИТОРЛАРИ ИЖОДИ МИСОЛИДА). *Science and innovation*, 1(C4), 29-33.
15. Xojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). МУСИҚИЙ САҲНАВИЙ АСАРЛАРНИНГ ИЖРОЧИЛИК МУАММОЛАРИ (ЎЗБЕКИСТОН КОМПОЗИТОРЛАРИ ИЖОДИ МИСОЛИДА). *Science and innovation*, 1(C4), 29-33.
16. Achildiyeva, M., Khojimamatov, A., Dilafruz, Y., & Ikromova, F. (2021). Uyghur Folk Singing Genre. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(10).
17. Achildiyeva, M. (2022). SHASHMAQOM MUSHKILOT BO'LIMINING NAZARIY ASOSLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 344-352.
18. Achildieva, M., & Ikromova, F. (2022). РЕЙНГОЛЬД ГЛИЭР ВА ТОЛИБЖОН СОДИҚОВНИНГ «ЛАЙЛИ ВА МАЖНУН» ОПЕРАСИДА МАҚОМ ЙЎЛЛАРИНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ. *Science and innovation*, 1(C4), 23-28.
19. Achildiyeva, M., Xojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). Shashmaqom saboqlari:" Navo" maqomi xususida. *INTERNATIONAL JOURNAL FOR ENGINEERING AND MANAGEMENT RESEARCH*, 11(01), 55-58.
20. Achildiyeva, M., Khojimamatov, A., Dilafruz, Y., & Ikromova, F. (2021). Uyghur Folk Singing Genre. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(10).

21. Achildieva, M., Ikromova, F., Abutolipova, M., & Khaydarova, O. (2021). The third renaissance towards ascending. *European Scholar Journal*, 2(9), 17-20.
22. Achildiyeva, M., Axmedova, N., Ikromova, F., Haydarova, O., Ibrahimova, G., & Abdurahmonov, A. (2021). TANBUR: ONE OF ANCIENT INSTRUMENTS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(6), 302-308.

